

# BIOLOGIYA

## Testlar

### 1 variant

1. Biopolimerlarga mansub bo‘lmagan organik birikmalarni aniqlang.

1) oqsil 2) lipid 3) polisaxarid 4) ATF 5) nuklein kislota 6) yog‘ kislota

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 2, 5 D) 3, 4, 5

2. Ildizga xos bo‘lmagan xususiyatlarni aniqlang.

a) barg hosil qilmaydi

b) karbonat angidridning yutilishini va kislorodning ajralishini ta‘minlaydi

v) fotosintezni amalga oshiradi

g) o‘simlikni tuproqqa biriktrib turadi

d) suv va mineral moddalarni shimadi

e) nafas olishda ishtirok etmaydi

A) a, g, d

B) a, v, d

C) b, v, e

D) b, d, e

3. Nematoda chuvalchanglardan farq qilib ko‘p tukli halqali chuvalchanglarda... rivojlangan:

A) hazm sistemasi;

B) ayirish sistemasi;

C) qon aylanish;

D) nerv sistemasi.

4. Chigirtkalarining qanotlari tananing qaysi bo‘limida joylashgan?

A) ko‘krak va qorin

B) ko‘krak

C) boshko‘krak va qorin

D) boshko‘krak.

5. Qon aylanish sistemasining murakkablashib borishi bo‘yicha ketma-ket joylashtirilgan hayvonlar qatorini aniqlang.

A) salamandra – tovushqon – gavial – dengiz tulkisi;

B) skat – triton – gavial – tovushqon;

C) akula – timsoh – salamandra – tovushqon;

D) alligator– akula – salamandra – norka.

6. Prokariot organizmni aniqlang.

A) nozema.

B) nitella

C) laminariya

D) nostok.

7. Translyatsiya jarayoni uchun matritsa – qolip vazifasini ... bajaradi.

A) tRNK;

B) DNK;

C) rRNK;

D) iRNK.

8. Odamning qaysi faoliyati shartli refleksga misol bo‘la olmaydi?

A) Kun tartibiga rioya qilish

B) yorug‘lik ta‘sirida ko‘z qorachig‘ining kengayishi

C) qo‘ng‘iroq chalinganda darsga kirish

D) hisoblash

9. Tashqi muhitdan olingan ta‘sirlarning impulsiga aylanishi .... da sodir boladi.

A) harakatlantiruvchi nervda

B) analizatorning markaziy qismida

C) analizatorning periferik qismida

D) bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ida

10. Hujayraning membranaga ega bo‘lgan qismlarini aniqlang.

1. Yadro 2. Ribosoma 3. Mitoxondriya 4. Hujayra markazi 5. Golji apparati

A) 1, 2, 3;

B) 1, 3, 5;

C) 2, 4, 5;

D) 1, 2, 4.

11. Katta qon aylanish doirasi qon tomirlarini aniqlang.

1. Aorta 2. Buyrak venasi. 3. Buyrak arteriyasi. 4. o‘pka arteriyasi. 5. o‘pka venasi. 6. Pastki kovak vena

A) 1,2, 6

B) 2, 3, 4

C) 1, 4, 5

D) 1, 4, 5

12. Qizil to‘shning hujayrasiga mansub bo‘lmagan tuzilmalarni aniqlang.

1. mitoxondriya

2. Sellyulozadan iborat hujayra qobig‘i

3. Golji apparati

4. Plastida

5. Ribosoma

6. hujayra shirasi bilan to‘lgan vakuola

A) 2, 5, 6.

B) 2, 3, 4, 6.

C) 2, 4, 6.

D) 1, 4, 6.

13. Qon tomirlari va ularda qanday qon oqishini juftlang.

1) venoz qon 2) arterial qon

a) kichik qon aylanish doirasining vena tomirlari; b) katta qon aylanish doirasining vena tomirlari;

c) kichik qon aylanish doirasining arteriya tomirlari; d) katta qon aylanish doirasining arteriya tomirlari

A) 1 – a, d; 2 – b, c

B) 1 – a, b; 2 – c, d

C) 1 – c, d; 2 – a, b

D) 1 – b, c; 2 – a, d

14. Qaragʻay va naʻmatak uchun umumiy xususiyatni aniqlang.  
 A) qoʻsh urugʻlanish; B) gulning mavjudligi;  
 C) urugʻidan koʻpayishi; D) tugunchadan meva hosil boʻlishi.
15. Boshqoqoshlar oilasi vakillari orasida ... hayot shakllari koʻp uchraydi:  
 A) oʻt B) liana C) buta D) daraxt
16. Oʻsimliklarda organik moddalar ... orqali harakatlanadi.  
 A) lub tolalari B) elaksimona naylar C) ksilema naylari D) floema naylari.
17. Sarv oʻsimligi zuhrasochdan farq qilib:  
 A) quruqlikda oʻsadi B) ildiz va poyaga ega  
 C) urugʻkurtakdan urugʻ, tugunchadan meva hosil qiladi D) urugʻidan koʻpayadi.
18. Dengiz choʻchqalari oʻzaro chatishtirilganda avlodda 50% qora (dominant) va 50% oq (retsessiv) hoʻchqalar olindi. Ota – onalarning genotipini yozing.
19. RNK nukleotidlari tarkibini aniqlang.  
 1) A, U, G, C azot asoslari  
 2) almashinmaydigan aminokislotalar  
 3) glitserin  
 4) riboza uglevodi  
 5) yogʻ kislota  
 6) fosfat kislota qoldigʻi
20. Qaysi metod yordamida hujayra qismlarini ajratib olib oʻrganiladi?
21. Oʻsimliklarning sistematik guruhlarini kichikdan kattaga qarab ketma – ket yozing.  
 1) sholgʻom  
 2) karamdosh  
 3) ikki pallali  
 4) yovvoyi sholgʻom  
 5) yopiq urugʻli
22. Oʻsimlik guruhlarini evolyutsion jarayonda kelib chiqishi bʻoyicha ketma – ket tartib bilan yozing.  
 1) yashil suvoʻtlar  
 2) yoʻsinlar  
 3) yopiq urugʻlilar  
 4) qirqquloqlar  
 5) ochiq urugʻlilar
23. Noʻtoʻgʻri fikrlarni aqlang. Tegishli raqamlarni tartib bilan yozing.  
 1) iRNK nasliy axborotni yadrodan ribosomaga yetkazadi  
 2) tRNK nasliy axborotni yadrodan ribosomaga yetkazadi  
 3) iRNK yakka polinukleotid zanjiridan tuzilgan  
 4) iRNK ning ikkita polinukleotid zanjiri bir-biri bilan vodorod bogʻlar orqali birikkan  
 5) RNK tarkibida riboza uglevodi va uratsil azot asosi mavjud  
 6) RNK tarkibida dezoksiriboza uglevodi va timin azot asosi mavjud
24. Toʻgʻri fikrlar berilgan raqamlarni yozing. Simpatik nerv sistemasi faoliyatini aniqlang.  
 1) siydik qopi muskullarini boʻshashtiradi;  
 2) bronxlarni toraytiradi;  
 3) bronxlarni kengaytiradi;  
 4) nafas olishni tezlashtiradi;  
 5) meʻda va ichaklarning harakatini tezlashtiradi.  
 6) ter ajralishini susaytiradi
25. Oʻsimlik va ularning bargi oʻrtasidagi muvofiqlikni aniqlang.  
 A. Oddiy barg. 1) shirinmiya  
 B. Murakkab barg. 2) tok  
 3) yeryongʻq  
 4) itsigak  
 5) oʻrik

**Test**  
**2- variant**

1. Gulli o‘simliklarda qo‘sh urug‘lanish bu:

- A) ikkita spermiyning bitta tuxum hujayra bilan qo‘shilishi
- B) ikkita diploid hujayralarning qo‘shilishi
- C) bir spermiyning tuxum va ikkinchi spermiyning markaziy hujayra bilan qo‘shilishi
- D) bitta spermiyning tuxum va ikkita spermiyning markaziy hujayra bilan qo‘shilishi

2. Dengiz karami dengiz likopchasidan farq qilib...

- a) tayyor organik birikmalar bilan oziqlanadi
  - b) yorug‘lik ta‘sirida anorganik birikmalardan organik birikmalarni hosil qiladi
  - v) xlorofillga ega
  - g) asosiy – assimlyatsion to‘qimaga ega
  - d) hosil qiluvchi to‘qimaga ega
- A) b, g, d                      B) a, v, g                      C) b, v, g                      D) g, d, a

3. Biopolimerlarga mansub organik birikmalarni aniqlang.

- 1) oqsil    2) lipid    3) polisaxarid    4) ATF    5) nuklein kislota    6) yog‘ kislota
- A) 1, 3, 5                      B) 2, 4, 6                      C) 1, 2, 5                      D) 3, 4, 5

4. Ildizga xos xususiyatlarni aniqlang.

- a) barg hosil qilmaydi
  - b) karbonat angidridning yutilishini va kislorodning ajralishini ta‘minlaydi
  - v) fotosintezni amalga oshiradi
  - g) o‘simlikni tuproqqa biriktrib turadi
  - d) suv va mineral moddalarni shimadi
  - e) nafas olishda ishtirok etadi
- A) a, g, d                      B) a, v, d                      C) v, g, d                      D) v, d, e

5. Qo‘ng‘irboshning ildiz tizimini tashkil etuvchi ildiz turlarini aniqlang:

- A) qo‘shimcha                      B) faqat yon ildizlar                      C) asosiy                      D) ildizpoya

6. Olma qanday kurtakda hosil bo‘ladi?

- A) vegetativ                      B) generativ                      C) qo‘shimcha                      D) vegetativ va generativ

7. Qaysi jarayon o‘simlikning suv bug‘latishiga bog‘liq emas:

- A) o‘simlikning qizib ketishdan himoyalaniishi
- B) o‘simlikda suv harakati
- C) o‘simlikda mineral tuzlar harakati
- D) o‘simlikda organik moddalar harakati

8. Piyozbosh - bu?

- A) ildizpoya                      B) ildizmeva                      C) ho‘l meva                      D) novda

9. To‘garak chuvalchaglardan farq qilib halqasimon chuvalchaglarda... rivojlangan:

- A) hazm sistemasi;                      B) ayirish sistemasi;                      C) qon aylanish;                      D) nerv sistemasi.

10. Hashrotlarning qanotlari tananing qaysi bo‘limida joylashgan?

- A) ko‘krak va qorin                      B) ko‘krak                      C) bosh ko‘krak va qorin                      D) bosh ko‘krak.

11. To‘rt kamerali yurakka ega hayvonni aniqlang.

- A) salamandra                      B) alligator                      C) dengiz toshbaqasi                      D) gekkon

12. Qon aylanish sistemasining murakkablashib borishi bo‘yicha ketma – ket joylashtirilgan hayvonlar qatorini aniqlang.

- A) baqa – tovushqon – gaviyal – dengiz tulkisi;
- B) skat – triton – alligator – tovushqon;
- C) akula – gaviyal– baqa– tovushqon;
- D) alligator– akula– baqa– koʻrshapalak.

13. Prokariot organizmni aniqlang.

- A) yashil evglena.
- B) nitella
- C) laminariya
- D) ossilatoriya.

14. Halqasimon DNKga ega organizmni aniqlang.

- A) qoʻzidumba;
- B) gommoz qoʻzgʻatuvchisi;
- C) leyshmaniya qoʻzgʻatuvchisi;
- D) parpi.

15. Mitoxondriyaning funksiyasini aniqlang.

- A) organik moddalarni oksidlash
- B) uglevodlarni sintezlash
- C) organik moddalarni zahiralash
- D) kraxmal va glikogenni parchalash.

16. Fotosintez jarayonida kislorod qaysi moddadan ajraladi?

- A) ATF
- B) glyukoza
- C) suv
- D) karbonat anhidrid.

17. Hazm qilish jarayonida oqsillar qaysi moddalarga parchalanadi?

- A) glitserin;
- B) yogʻ kislotasi;
- C) monosaxarid;
- D) aminokislota.

18. Oʻsimliklarni ularga xos meva turlari bilan juftlang.

- |            |              |
|------------|--------------|
| A. Rezavor | 1) Kartoshka |
| B. Yongʻoq | 2) Loviya    |
| C. Qoʻzoq  | 3) Pomidor   |
| D. Dukkak  | 4) Bodom     |
|            | 5) Akatsiya  |
|            | 6) Qurtana   |

19. Oʻsimliklarni ularga xos barg turlari bilan juftlang.

- |                   |            |
|-------------------|------------|
| A. Oddiy barg.    | 1) noʻxat  |
| B. Murakkab barg. | 2) gʻoʻza  |
|                   | 3) sebarga |
|                   | 4) qoqioʻt |
|                   | 5) yantoq  |

20. Oʻsimliklarni ularga xos toʻpgul turlari bilan juftlang.

- |              |                 |
|--------------|-----------------|
| A. Soyabon.  | 1) Nastarin     |
| B. Shingil.  | 2) Kungaboqar   |
| C. Savatcha. | 3) Qashqarbeda  |
|              | 4) Ukrop        |
|              | 5) Kartoshkagul |

21. Koʻzning qismlari orqali yorugʻlik qanday ketma – ketlikda oʻtadi?

- 1) toʻrparda
- 2) gavhar
- 3) shoxparda
- 4) shishasimon tana
- 5) koʻz ichi suyuqligi
- 6) qorachiq

22. Toʻgʻri fikrlarni aniqlang.

- 1. Odamda epiteliy toʻqimasi himoya, hazm qilish va gumoral boshqarishda ishtirok etadi.
- 2. IV qon guruhli odamlar qonida agglyutinigen A va agglyutin beta boʻladi.
- 3. Tobulgʻi, olma, xolmon, olgining gullari murakkab gulqoʻrgʻonli.

4. Shartli refleksni yuzaga chiqaradigan shartli signal haddan tashqari kuchli bo'lsa shartli so'nish tormozlanishi sodir bo'ladi.

5. Zamburug'larning hujayra qobig'I polisaxariddan iborat.

23. O'simlik bo'limlari va ularga xos xususiyatlarni juftlang.

<b>Xususiyatlar</b>	<b>O'simlik bo'limlari</b>
A) to'qima va organlar rivojlanmagan	1. Yo'sinlar
B) gametofiti mustaqil organizm	2. Qirqquloqlar
C) sporofiti gametofitda hosil bo'ladi	3. Suvo'tlar
D) tugunchadan meva hosil qiladi	4. Ochiq urug'lilar
E) urug'lanishi suv bilan bog'liq bo'lmagan gullamaydigan o'simlik	5. Yopiq urug'lilar

24. To'g'ri fikrlarni aniqlang va tegishli raqamlarni ketma – ket yozing. Suvda hamda quruqlikda yashovchilarning quruqlikda yashashga moslanishi .... mavjudligi bilan bo'g'liq?

- 1) oldingi va orqa oyoqlar
- 2) tashqi urug'lanish
- 3) doimiy tana harorati
- 4) o'pkalar
- 5) nog'ora parda
- 6) aralash qon

25. To'g'ri fikrlarni aniqlang va tegishli raqamlarni ketma – ket yozing.

- 1) Bakteriyalar bir hujayrali eukariot organizmlardir.
- 2) Bakteriyalar shakliga ko'ra kokklar, batsillalar, spirillalar, vibrionlarga bo'linadi.
- 3) Barcha bakteriyalar parazit hayot kechiradi.
- 4) Bakteriyalar jinssiz ikkiga bo'linib ko'payadi.
- 5) Bakteriyalar odamlarda sil, qoqshol, quturish kabi kasalliklarni qo'zg'atadi.